

URBANIZATSIYA MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH

YUZASIDAN HAYOTIY TAKLIFLAR

N.N. Xolmirzaev, TDTU Qo‘qon filiali
“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi
dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha (PhD)

Kalit so‘zlar: Urbanizatsiya siyosati, urbanizatsiya muammolari, prezident farmoni, kelajakka takliflar, cheklangan muvofiqlashtirish.

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan urbanizatsiya siyosati, bu boradagi muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan chiqarilgan prezident farmoni va unda belgilangan vazifalar, hamda mazkur muammolar yuzasidan takliflar to‘g‘risida so‘z boradi.

Key words: Urbanization policy, urbanization problems, presidential decree, proposals for the future, limited coordination.

Abstract: The article talks about the urbanization policy being carried out in our country, the problems in this regard, the presidential decree issued in connection with their elimination and the tasks defined in it, as well as the proposals regarding these problems.

Urbanizatsiya sohasidagi davlat siyosati jarayon va mintaqaga qarab o‘zgaradi. Bu borada barcha hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Biroq, ba’zi umumiylar ustuvorliklar va vazifalar mavjudki ular barcha uchun birdek amal qiladi. Xususan, A.A. Lapinskasning fikricha iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy tenglik va atrof-muhitni muhofaza qilish muvozanatini ta’minlovchi barqaror urbanizatsiyani rag‘batlantirish masalasi dunyoning istalgan davlati uchun xosdir¹. Bizning nazаримизда shahar infratuzilmasi va xizmatlari, jumladan, energiya, transport, suv va kanalizatsiya bilan ta’minlashni yaxshilash muammosi ham sohadagi eng muhim hamda barcha uchun birdek hal etilishi lozim bo‘lgan

¹ Лапинскас А.А. Современная специфика корпоративных отношений на примере вертикально-интегрированной компании. Журнал. Записка Горного института. – 2018, Т.233 С.563

masalalar sirasiga kiradi. Qayd etish joiz hayot sifati, samaradorlik va aloqalarni yaxshilash uchun innovatsiyalarni, hamda aqli shaharlarni rivojlantirishni rag‘batlantirish masalalari bugungi kunda shaharlashtirish sohasidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Zero bu inson ongi va tafakkuri bilan bog‘liq xolda yechiladigan hamda taqdim etiladigan jarayonlardir. Shuningdek, shaharni samarali rejalashtirish va boshqarish orqali ularni o‘sishiga erishish, hamda yerdan foydalanishni boshqarish ham ustivor vazifalar qatoriga kiradi. Yana sohada olib borilgan tadqiqotlardan ma’lumki shahar boshqaruvi va markaziy, hamda mahalliy hukumatlar, shuningdek, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalasini urbanizatsiya taraqqiyoti jarayonidagi muhim ijtimoiy omillar sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga so‘ngi yillarda dunyoda, shuningdek mamlakatimizda shaharlashtirish sohasida qator muammolar kun tartibiga chiqdiki ular to‘g‘risida fikr yuritishni o‘rinli deb hisoblaymiz. Kuzatishlarimiz hamda olib borilgan tadqiqotimizdan kelib chiqqan xulosalarga ko‘ra hozirgi kunda urbanizatsiya siyosatining kechiktirmasdan hal etish zarur bo‘lgan mamlakatimizga xos bo‘lgan bir qator muammolari sifatida quyidagilarni misol keltiramiz.

1. Urbanizatsiya loyihalari uchun mas’ul bo‘lgan turli davlat idoralari o‘rtasidagi cheklangan muvofiqlashtirish va hamkorlikning yo‘qligi yoki qarama-qarshi siyosatlar, takrorlashlarning mavjudligi;
2. Barqaror shahar infratuzilmasi, shu jumladan transport, suv ta’minoti va kanalizatsiya, energiya va telekommunikatsiya tizimlarida muammolarning ortib borayotganligi;
3. Barcha fuqarolar uchun arzon va qulay uy-joylar bilan ta’minlash masalasining hamon kun tartibida ekanligi;
4. Sifatli ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarda barqarorlikning mavjud emasligi;
5. Oliy ta’lim muassasalarida sohaga oid kadrlarni tayyorlash tizimining talablarga javob bermasligi;

6. Jamoat xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarga javob berishning samarali tizimlari zamon talablariga to‘liq javob bermasligi;
7. Ijtimoiy hamjihatlikni rag‘batlantirish va ijtimoiy izolyatsiyani kamaytirish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan jamoat joylari, bog‘lar va madaniy va dam olish maskanlarining kamligi;
8. Fuqarolar turmushini qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish uchun iqtisodiy imkoniyatlar va ish o‘rnlari yaratish jarayonlarining sustligi yoki xo‘jako‘rsinga bajarilayottganligi;
9. Haddan tashqari gavjumlikk va uy-joylarning nomutanosib qurilganligi;
10. Yo‘l harakatining tirbandligi;
11. Haddan tashqari zichlik;

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek mamlakatimizda urbanizatsiyaning kechiktirmasdan hal etish zarur bo‘lgan qator muammolari sirasini yana davom ettirishimiz mumkin, ammo ushbu masalalarni bartaraf etishning o‘zi qolgan biz ta’kidlamoqchi bo‘lgan muammolarga yechim bo‘ladi nazarimizda.

Ta’kidlash joiz sohada kamchiliklar mavjud bo‘lishiga qaramay mamlakatimiz so‘nggi yillarda ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi shaharlashtirish sohasida salmoqli yutuqlarga erishib kelmoqda. Bunga fikrimizcha yurtboshimiz tomonlaridan olib borilayotgan oqilona siyosat tufayli erishmoqdamiz desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tan olish kerak so‘ngi yillarda asrlarga tatigulik ishlarni amalga oshirildi. Xususan biz so‘z yuritayotgan shaharlashtirish sohasida ham ulkan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ammo hamon mazkur sohada o‘z yechimini kutayotgan muammolar talaygina bo‘lib, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida mamlakatda urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan, yuqorida ta’kidlab aytganimiz PF-5623-son Prezident farmoni qabul qilinib, unda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berildi.

Unda belgilangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqib yuqorida ko‘rsatilgan muammolarning quyidagi potensial yechimlarini taklif etamiz.

1. Urbanizatsiya va rejalashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonlarida mahalliy hamjamiyatlarning ishtirokini oshirish: Qayd etish joiz O'zbekistonda shaharsozlik siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mahalliy hamjamiyatlar va aholining fikrlari yetarli darajada inobatga olinmay kelmoqda. Zero bir necha loyihalar o'z vaqtida ohiriga yetmay to'xtab qolayotganligi, ularni aslida bir necha mutasaddilar qabul qilayotganligi fikrimizni isbotidir. Bunga misol sifatida Buxoro shahrida qurilishi rejalashtirilgan keyinchalik esa fuqarolar hoxish istaklari va asosli e'tirozlari bilan qurilishi to'xtab qolgan xalqaro turizm markazini keltirishimiz mumkin.
2. Urbanizatsiya loyihalarini moliyalashtirishning yetarli emasligi. Bunda ko'pincha ajratilgan mablag'lar rejalashtirilgan ishlarga muvofiq kelmaslik xolatlari uchraydi. Mamlakatimizda shahar sharoitini yaxshilash bo'yicha katta sa'y-harakatlarga qaramay, ulkan loyihalarni, xususan, qishloq hududlarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun ko'proq moliyaviy resurslar talab etiladi. Mahalliy hokimiyatlarning mablag'lari yetarli emasligi markaziy hokimiyat tomonidan ajratilishi zarur bo'lgan mablag'larga ehtiyoj zarurati fikrimizni tasdiqlaydi.
3. Sohadagi muammolardan yana biri urbanizatsiya loyihalari uchun mas'ul bo'lgan turli davlat idoralari o'rtasidagi cheklangan muvofiqlashtirish va hamkorlik qarama-qarshi siyosatlar, takrorlashlar yoki resurslarning isrof qilinishi xolatlarining mavjudligi. Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlardan maqsad inson qadrini ulug'lash va unga munosib turmush sharoiti yaratish hisoblanadi. Zero odamlar bugungi kunidan rozi bo'lib yashamoqlari kerak. Ammo xali xanuz urbanizatsiya sohasidagi qator ishlar tartibga solinmay kelayotganligi bor gap. Bunga misol tariqasida kadastr va soliq hujjatlarini o'z vaqtida turli anglashilmovchiliklar bilan faoliyat ko'rsatayotganligi ko'rsatsak bo'ladi.
4. Mazkur muammo doirasida hukumatning urbanizatsiya maqsadlari doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish choralariga yanada ko'proq e'tibor qaratish lozim. Uni hisobga olmaslik atrof-muhitning yomonlashishiga va yashash joyining

yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Buni Toshkent shahri va viloyatlardagi qator shaharlarda besabab kesib yuborilayotgan manzarali daraxtlar misolida aytishimiz mumkin. Bu kabi xolatlar o‘zini uzoq kuttirmay chang-to‘zon ko‘tarilishi, xavoning xaddan tashqari ifloslanishi kabi muammolarni keltirib chiqaryotganligini hammamiz ko‘rib turibmiz va jafosini chekmoqdamiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki O‘zbekiston urbanizatsiya sifatini oshirish va mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha salmoqli sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Kelajakda faoliyatni takomillashtirish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekiston hukumati hozirgi vaqtning o‘zidayoq mamlakatda adolatli va barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida to‘g‘ri yo‘nalishda qadam tashlamoqda.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yhati:

1. Lapinskas A.A. Sovremennaya spesifika korporativnyx otnosheniy na primere vertikalno-integrirovannoy kompanii. Jurnal. Zapiska Gornogo instituta. – 2018, T.233 S.563
2. NN Holmirzaev Eastern and western experience of labor culture <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38564222>
3. Xolmirzaev N.N. Urbanizatsion taraqqiyot rivojida kimyo sanoati omili. Ekonomika i sotsium, 2021- elibrary.ru №-11-2, 625-627 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=47780854>
4. Xolmirzayev N.N.1 Evolution of social activity and some aspects of its formation in young people. Ekonomika i sotsium, 2021- elibrary.ru №-2-1, 395-396 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45679718>
5. Xolmirzayev N.N.1 Key features and factors of modern urbanization. Ekonomika i sotsium, 2021- elibrary.ru №-1-2, 652-653 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45593716>